



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

GERMANY

CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SCIENCE, ENGINEERING AND
TECHNOLOGY**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY:
a collection scientific works of the International scientific conference –
Hamburg, Germany, 2026 Issue 6

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference « **INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY** ». Which took place in Hamburg 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



XX asr boshlarida Turkistonda mafkura va adabiyot

Mo‘minov Begali Yunusovich

ADU katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada XX asrning 20-yillaridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, badiiy adabiyot sohasidagi o‘zgarishlar, bu davr o‘zbek nasriga xos tamoyillar, “yangi inson” obrazini yaratishdagi harakatlar, badiiy ijoddagi g‘oyaviy kurashlar obrazlar talqini, ijodkor badiiy niyati va asar qahramonlariga bo‘lgan munosabati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: 20-yillaridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, badiiy adabiyot, badiiy obraz, badiiy g‘oya, bosh qahramon, badiiy talqin.

Ijtimoiy hayotdagi har bir yangilik, har bir islohot ana shu jamiyatning ma’naviy tafakkurida o‘z aksini topadi. O‘tgan asrning 20-yillarida Turkistonda ro‘y bergan siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy sohadagi o‘zgarishlar davr ziyolilarining diqqat markazida bo‘ldi va ularning voqelikka turli munosabatda yondashuviga zamin yaratdi. Oktyabr to‘ntarishidan keyin bolsheviklarning hukumatni qo‘lga olishi boshqa mustamlaka xalqlar qatori Turkiston xalqlarida ham yangidan umid uyg‘otdi. Lekin xalqning ilg‘or fikrli ziyolilari bolsheviklarning g‘alabasi ham yurtga haqiqiy ozodlik bermasligini tez fursatda tushunib yetdilar.

Biroq o‘sha davr mafkurasida ta’sirida 20-yillar o‘rtalaridan boshlab adabiyotda mavjud voqelikni biryoqlama – tarafkashlik asosida tasvirlashga qaratilgan holatlar yuzaga keldi. Yangi adabiy estetik prinsiplarni sovet yozuvchilari tomonidan yanada yaxshiroq o‘zlashtirishda, proletar adabiyotining chinakam g‘alabasini ta’minlashda Markaziy Komitetning 1925 yil 18 iyundagi “Partiyaning badiiy adabiyot sohasidagi siyosati to‘g‘risida” chiqargan qarori g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Unda ziddiyatlar kuchaygan bir sharoitda proletar adabiyotini qo‘llab-quvvatlash, proletar yozuvchilari siymosida sovet adabiyotining kelajagi – g‘oyaviy rahbarligini ko‘rish ta’kidlangan edi. Ushbu qarorda “... Adabiyotning bosh masalasi bo‘lgan **yangi inson** obrazini yaratishga intilish, markscha-lenincha dunyoqarashning birligi... o‘zbek adabiyotining ham mazmunan sotsialistik, shaklan milliy adabiyotlardan biri bo‘lishiga asos bo‘ldi” [1. B. 13] deyiladi. Shunga binoan yaratilayotgan adabiy asarlarning markazida davr ruhi bilan hamnafas, yangi g‘oyalar targ‘iboti va da’vatiga “labbay” deb javob beradigan, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol, sho‘ro hukumatining ko‘rsatmalarini qo‘llab-quvvatlaydigan “**yangi inson**”lar obrazi tasvirlandi.

“Partiyaning nafis adabiyot sohasidagi siyosati to‘g‘risida”gi maxsus rezolyutsiyasida “... biz madaniy inqilob davriga kirdik, bu madaniy inqilob davri kommunizm jamiyati tomon yana qadam bosib borishga imkon beradigan shartdir. Yangi adabiyotning o‘ssishi, ya’ni avvalo proletariyat va dehqonlar adabiyotining... o‘ssishi, hammasi omma ichidagi ana shu madaniy o‘ssishning bir qismidir” [2. B.



99–100] deyiladi. Shuningdek, o‘n olti banddan iborat bo‘lgan mazkur rezolyutsiyada eski va yangi ziyolilarning yangi burjuaziga, albatta moyillik ko‘rsatishi, jamiyat ichidan bu burjuaziyaning yangi mafkurachilari paydo bo‘lishi, xullas, bu hollarning barchasi ijtimoiy hayotning adabiyot yuzida aks etib ko‘rinishi muqarrarlighi ta’kidlanadi. Jamiyatda sinfiy kurash to‘xtamaganidek, adabiyot maydonida ham to‘xtamasligi, sinfiy jamiyatda betaraf san’at yo‘q va bo‘lishi mumkin ham emasligi uqtirib o‘tiladi. Shu tariqa rahbar partiyaning nafis adabiyot sohasidagi siyosati proletar yozuvchilar bilan boshqa xil yozuvchilar o‘rtasidagi munosabatni, adabiy tanqid, badiiy asarlarning uslubi va shakli masalalarini ham o‘z nazoratiga oldi. Proletar yozuvchilarining gegemon bo‘lishlarida va tarixda o‘zlariga haq va huquq olishlarida partiya doimiy yordam berishi, ularning kelgusida sovet adabiyotining g‘oyaviy rahbarlari bo‘lishi alohida ta’kidlandi. “Partiya qo‘lidagi tarbiya qurollarining muhimlaridan biri bo‘lgan tanqid” [2. B. 102]ning vazifalari ham sinfiylik nuqtai nazaridan belgilandi, ya’ni kommunistik mafkuraga zid bo‘lgan, uning g‘oyalarini tarannum etmagan, aksilinqilobchilik kayfiyatidagi yozuvchilarga qarshi kurashish, ularga nisbatan keskin choralar ko‘rish va “qattiq zarba berish” kerakligi ko‘rsatib o‘tildi. Umuman, “adabiyot xoslar ishi degan taassubni qat’iy ravishda uloqtirib tashlab”, million-million omma tushunadigan yangi shakldagi ishchi va dehqonlar adabiyotini yaratish barcha ijodkorlar zimmasiga madaniy tarixiy vazifa etib yuklatildi.

Shu tariqa 20-yillar o‘rtalaridan adabiyotda mafkurabozlik avj olib ketdi. Buning natijasida adabiyotdan sinfiy dushman qidirish tanqid prinsipida asosiy mezonga aylandi. Masalan, Abdurahmon Sa’diy “Olti yil ichida o‘zbek she’riy adabiyoti” maqolasida qo‘lida qalam qimirlagan kishidan “inqilobiy va sinfiy ruh”ni talab qildi. Yozuvchilarni o‘ng-so‘l, ishchi-dehqon, yo‘lovchi-to‘xtovchi, mafkurasi buzuq, mafkurasi tuzuk, bizniki-siznikiga ajratishda, sinfiy dushman ro‘yxatini ko‘paytirishda kim o‘zarchilik musobaqasi boshlandi. Haqiqiy millatparvar ijodkorlar siyosiy ta’qibga uchradi, millatchilikda ayblandi. Olim Sharafiddinov (“Ayn”)ning “O‘zbek shoirlari. Cho‘lpon.” (1927), Usmonxon Eshonxo‘jayevning “Munaqqidning munaqqidi” (1927), Mahmud Hodiyev (Botu)ning “Qizil madaniyatchilar g‘alabasi” (1927), Mixail Shyeverdinning “Birinchi o‘zbek romani” (1928), J.Boybo‘latovning “O‘zbek adabiyoti va chig‘atoychilik” (1928), Otajon Hoshimovning “Jadid adabiyoti to‘g‘risida” (1929) kabi ko‘plab tanqidiy maqolalarida bu davr ijodkorlari va ularning asarlariga nisbatan sinfiy nuqtai nazardan yondashildi, siyosiy, g‘oyaviy xato va kamchiliklar qidirilib, turli ayblovlar qo‘yilishiga sabab bo‘ldi. Bu haqda adabiyotshunos B.Karimov shunday deydi: “Asarni jiddiy tahrir etishga chanqoqlik, yozuvchining dunyoqarashi bilan hisoblashmaslik, so‘z san’atining nozik va nafis spesifikasini nazar-pisand qilmaslik, har qanday adabiy voqelikka firqaning siyosiy-mafkuraviy pozitsiyasidan biryoqlama yondashish, o‘zgani xatkor, o‘zni mutloq haqgo‘y deya tasavvur etib, boshqalarga yo‘l ko‘rsatish va



aql o'rgatishga ishtiyoqmandlik – bularning barcha-barchasi vulgar sotsiologik tahlilga xos xususiyatlar edi” [3. B. 19]. Jamiyatda esa yangi tuzumni olqishlaydigan, “millionlar baxtini kuylaydigan”, “unganman qip-qizil lola qo‘ynida” deya inqilob nashidasi bilan yashaydigan ijodkorlar shakllana boshladi. Aslida, hayot tamomila boshqacha tus olgandi. Adabiyotdagi ideallar bilan sho‘ro voqeligi o‘rtasida keskin nomuvofiqlik, ziddiyatlar borgan sari kuchayib bormoqda edi. Jamiyatda ijtimoiy sinflarning, shuningdek, ijod ahlining har xil dunyoqarashga ega ekanligi adabiyotda ham turli xil uslub, ohanglarni keltirib chiqardi.

20-yillardagi sinfiy kurashlar natijasida asta-sekin o‘zbek yozuvchilarining asarlarida ham sovet hokimiyati davrida partiya tomonidan mehr bilan tarbiyalab yetishtirilgan “yangi odamlar” obrazini yaratish, ularning ichki dunyosini kengroq yoritish boshlandi. Masalan, M. Shyermuhammedovning “Kommunizm chechaklari”, “Bugun bayram edi” hikoyalarida Oktyabr inqilobi va fuqarolar urushi qahramonlarini ulug‘lash tasvirlangan bo‘lsa, Elbekning “Qo‘shchi Turg‘un”, Zarif Bashirning “Erk yo‘lida”, G‘ayratiyning “Qutulish”, S.Ayniyning “Qulbobo va ikki ozod” qissa va hikoyalarida yer-suv islohoti, xotin-qizlar ozodligi uchun kurash, o‘zbek mehnatkashlarining sho‘ro hukumati davridagi erkin va baxtli hayoti, o‘tmishdagi og‘ir turmushini ko‘rsatish, Shokir Sulaymonning “O‘ch”, Uyg‘unning “Alamzadalar” hikoyalarida sinfiy dushmanlarni fosh etish asosiy mavzu bo‘lganini ko‘ramiz.

G‘ayratiyning 20-yillarda yozgan bir qator hikoyalari badiiy jihatdan anchagina bo‘sh, talab darajasida bo‘lmasa ham, g‘oyaviy jihatdan yaxshi baholanib, qo‘llab-quvvatlandi. Jumladan, adibning “Qora yuraklar” to‘plamidagi “Rahbaroyning aldanishi” hikoyasida xotin-qizlar ozodligi va inqilobdan keyingi yoshlar hayoti tasvirlanadi. Hikoyada Rahbaroy, Akram va Sobirjon obrazlari orqali yetishib kelayotgan yosh sovet ziyolilari ko‘rsatilgan. Rahbaroy G‘ulom degan o‘qimishli, biroq dunyoqarashi va xulq-atvori eskicha bo‘lgan yigitning tuzog‘iga ilinib, o‘qishdan va jamoatchilik ishlaridan ajralib qoladi. Lekin bu holat shundayligicha qolmaydi. Rahbaroy yana o‘zining safdoshlari qatoriga qo‘shiladi, G‘ulom esa Sovet organlari tomonidan javobgarlikka tortiladi. G‘ayratiy yangi zamon talablariga mos yangi qahramonlar obrazi orqali eskicha diniy qarashlar bilan yangicha, ya‘ni sho‘rolarga xos g‘oyaviy kuchlarning qarama-qarshiligini, kurashini sinfiy jihatdan yoritishga harakat qilgan va o‘zining ham g‘oyaviy pozitsiyasini ko‘rsatgan.

Mirmulla Shyermuhammedovning “Bu kun bayram edi” hikoyasi ham juda sodda uslubda yozilgan. Asarda boylarning qo‘lida og‘ir mehnat qilib, ayoli, uch o‘g‘il va bir qizini boqishga qiynalgan, kasalmand Oxunjon hayoti berilgan. Muallif (o‘zi ishonganidek) Rusiyadagi inqilobning hamma joylarda yangidan istiqbol umidlarini uyg‘otayotganiga urg‘u beradi. Oxunjon ham ana shu yangi kuch – ishchilar safiga qo‘shilib, yangi hayot uchun kurashga otlanadi. Muallif endi Oxunjonning hayotida katta o‘zgarishlar bo‘lishiga ishora qiladi. Tongda yosh



kommunistlar firqasi komiteti raisligiga saylangan o'g'li Yusuf otasini tabriklaydi: "Otajon, bu kun bayram. Sizni tabrik qilaman. O'zim esa hozir yig'inga boraman". Hikoya so'ngidagi bu holat muallifning muddaosini ifodalaydi, ya'ni ijodkor o'z idealidagi yangi qahramonni ko'rsatish orqali davr ijtimoiy-siyosiy jarayonidagi o'zgarishlarga munosabatini bildiradi. [4]

Shuningdek, M.Shyermuhammedovning "Kommunizm chechaklari" hikoyasida ham shunga o'xshash holatni ko'ramiz. Asarda eski (oktyabr inqilobidan oldingi) va yangi (inqilobdan keyingi) hayot muqoyasa qilingan. Hikoyada otasining vafotidan keyin "ishchilar hukumatining soyasida, hukumat maktabida" yaxshigina ta'lim-tarbiya olgan yosh Alijon shunday deydi: "Onajon, bugun zo'r bayram. Rusiyada yashag'uvchi ayrim yo'qsullarning tarixiy bayramlari. Bugun asrlardan beri yo'qsullar yelkasida og'ir yuk bo'lib yotqon ularning yumushlarin o'z qo'llarida xoinona suvratda hal qilmoqg'a tirishgan boylar, to'ralar, podshohlarning mahkam mavqelarini ishchilar g'alabasi bilan bo'shatib, jahannamga ketgan kunlari. Bugun insoniyat dunyosining ko'p qismini tashkil qilgan ezilgan yo'qsullarning to'rt yillik tarixiy bayramlari". [5] Muallif hikoya bayonida Sharq dunyosining ma'rifatdan chetda yashashiga sabab bo'lgan eski turmushni qoralaydi, sho'rolar olib borayotgan "adolatli" siyosatni oqlaydi va o'zining voqelikka bo'lgan munosabatida "yangi inson"lar tarafida ekanligini "yangi hayotga kirgan zo'r shodliq kunlarimizdir" deya bildiradi. Yosh avlodning esa Turkistondagi xurofiy e'tiqodlarni butunlay yo'q qilishga otlangan yangi kuch, "Alijonlar, Rahimalar "kommunizm" boqchasining yangidan ochqon chechaklari" ekanligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, Sh.Sulaymonning "Yangi qishloq", "Yangi xo'jayinlar", Fattoh Rahmonning "Yangi turmushda", "Yangi domla", Mahbuba Rahim qizining "Qorong'ulikdan yorug'likka", "Halima komsomolka", "Yashnagan kunlarda" [6] kabi asarlarda inqilob tufayli o'lkada o'zgarish yasagan sho'rolar siyosatiga ishonch va uni qo'llab-quvvatlash, "yangi turmush"dan qoniqish va zavqlanish kayfiyati ifodalanganini ko'ramiz.

20-yillar adabiyotida mafkura manfaatlaridan ustun turuvchi, milliy adabiyotimiz taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan badiiy asarlar ham yaratildi. Bu davr adabiyotining asosiy yutuqlari sifatida Abdulla Qodiriyning "Uloqda", "Jinlar bazmi", "O'tkan kunlar". "Mehrobdan chayon", Fitratning "Qiyomat", "Hind ixtilolchilari", "Abulfayzxon", Cho'lponning "Klio'patra", "Oydin kechalarda", "Qor qo'ynida lola", "Novvoy qiz", "Yorqinoy", Hamzaning "Burungi saylovlar", "Maysaraning ishi", "Paranji sirlari", G'ulom Zafariyning "Halima", "Baxtsiz shogird", Avloniyning "Ikki muhabbat", "Portugaliya inqilobi" kabi asarlarini keltirish mumkin. Jadid ijodkorlarining asarlari bilan yangi o'zbek adabiyotida yangi janrlar, yangi shakllar va obrazlar ommalashdi, til va uslub imkoniyatlari kengaya bordi.



Adabiyotlar:

1. O'zbek sovet adabiyoti tarixi. I tom. Tahrir hay'ati: M.T.Oybek, V.Y.Zohidov, H.Y.Yoqubov, I.O.Sultonov, Yu.Sultonov, K.Yashin, Q.Xonazarov, S.S.Qosimov. – Toshkent: Fan, 1968. – 416 b.
2. Adabiyot xrestomatiyasi. Tuzuvchilar: Mirxojiyev Z.Dolimov S. va boshq. – Toshkent: O'zdavnashr, 1949. – 408 b.
3. Karimov B. Abdulla Qodiriy va germeneytik tafakkur. – Toshkent. "Akademnashr", 2014. – 254 b.
4. Shyermuhammedov M. Bu kun bayram edi. "Ishtirokiyun" gazetasi, 1920 yil, 7 noyabr.
5. Shyermuhammedov M. Kommunizm chechaklari. "Qizil bayroq" gazetasi. 1921 yil 7 noyabr.
6. Shokir Sulaymon (tuzuvchi). Yosh kuch. O'zbekiston davlat nashriyoti. Samarqand – 1929 – Toshkent.